

Institut ko'rki ustoz va shogirdlar bilan

Respublika komissiyasining 2020-yil 12-noyabrdagi yig'ilishi qarori xamda Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsilash muhandislari institutida ishlab chiqilgan va rektorat tomonidan tasdiqlangan chora-tadbir va reja-grafikga asosan 2020-yil 16-noyabr kuni "Gidromelioratsiya" fakulteti, "Suv xo'jaligi va melioratsiya" ta'lif yo'nalishi 1-bosqich, 101-guruh talabalariga dars mashg'ulotlari an'anaviy tarzda boshlandi. Dars mashg'ulotlarini boshlashdan oldin guruh murabiysi B.Sh. Matyakubov 101 -guruh talabalarini yana bir bor Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti, "Suv xo'jaligi va melioratsiya" ta'lif yo'nalishi talabasi bo'lganligi bilan muborakbod qildi. Hamda institutda bilim olishga muvaffaqiyatlar tilagan holda, barcha fanlarni yuqori darajada o'zlashtirishlari uchun intstitutda barcha sharoitlar yaratilganligini aytdi. Shu bilan bir qatorda talabalar doimo sog' va omon bo'lishi va belgilangan karantin talabalariga rioya qilishi to'g'risida tushunchalar berdi.



TIQXMMI matbuot xizmati